



## BO'LAJAK SPORTCHI MURABBIYLARDA SOTSIOMADANIY XISLATLARINI SHAKLLANTIRISH

**Eshquvvatov To'liqinjon Eshquvvatovich**

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali, Maktabgacha ta'lim va pedagogika kafedrasi mudiri, (PhD)  
t.eshquvvatov@mail.ru (91-531-07-21)

**Dusmuradov Elbek Baxtiyor o'gli**

SamDUining Kattaqo'rg'on filiali Sport faoliyati(Kurash)yo'nalishi  
3-bosqich talabasi (99-250-14-98)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8434405>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 02-October 2023 yil  
Ma'qullandi: 06- October 2023 yil  
Nashr qilindi: 12- October 2023 yil

### KEY WORDS

*Mustaqil fikrlash; komillik; jismoniy salomatlik, axloqiy poklik, aqliy yetuklik; sotsiomadaniy xislatlar;*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida ularning sotsiomadaniy xislatlarini shakllantirishning dolzarbligi asoslangan. Pedagogik faoliyat davomida "shaxs", "jamiyat" va "davr" tushunchalarining o'zaro munosabatlari o'rganilgan..*

Янги mustaqil O'zbekistonimiz o'z vataniga fidokor, o'zini anglagan, yangilikka intiluvchan, mustaqil fikrga ega bo'lgan, bilimli, kelajakka ishonch bilan qaraydigan, barkamol avlodni voyaga yetkazishni oliy maqsad sifatida belgilab oldi.

Yoshlar vatanimizning, millatimizning kelajagidir. Xozirgi avlod vatanimiz taqdirini yoshlarga ishonib topshiradi. Buning uchun ular zimmalariga yuklanayotgan yuksak ma'sulyatni chuqur his qilishlari, unga munosib bo'lishlari zarur. Shu ma'noda olganda jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyoti yosh avlodga berilayotgan ta'lim va tarbiyaga bog'liq deb aytishimiz mumkin. Ta'lim va tarbiyaning maqsadi shaxs kamolotidir. Mustaqil fikrlash komillikning asosiy belgisidir. Komillik uch bosqichdan iborat: jismoniy salomatlik, axloqiy poklik, aqliy yetuklik. Bu bosqichlarni shakllantirishda mustaqil fikrlash yetakchi ustivor o'rin egallaydi. Mustaqil fikrlash mustaqil fikrlash sarchashmasi fahmlash ya'ni anglashdan, fikr yuritishdan boshlanadi.

Muayyan jamiyatdagi shaxsning ongi, ma'naviy qiyofasi o'sha jamiyatning tabiiy, ijtimoiy, tarixiy sharoitlariga qarab o'zgarib boradi. yoshlarimizni ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasiga ayniqsa biz pedagoglar ma'sulmiz. Bu vazifani muqaddas bilib, amaliy faoliyatimizda hayotga tadbiiq etaylik. Barkamol avlod mustaqilligimizning kafolatidir. Komil shaxs bu chuqur bilimga ega, yuksak ma'naviyatli, jamiyatga ezgulik nurini taratadigan ijtimoiylashgan shaxsdir.

Jamiyat-insonlar majmuidir. Uning taraqqiyoti va ma'naviy salohiyati ko'p jihatdan ana shu insonlar o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlarning tabiatiga, ular amalga oshiradigan murakkab ijtimoiy hamkorlik faoliyatining mazmuniga bog'liq. Har bir inson jamiyatda yashar ekan u unda o'ziga xos o'rin va mustaqil mavqiy egallashga intiladi, binobarin u o'ziga xos intilish layoqat va faollik na'munalarini namoyish qiladi.

Ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o'tishning ijtimoiy munosabatlari va bunda davlatning roli, axborotlar, ustoz-shogird munosabatlari kadrlar muammolari yoshlarning ma'naviyatida ruy

berayotgan zaiflikning sabablari va ularning aniqlash, tekshirish, hal etish ijtimoiy faollik, kasbiy mahorat shuningdek mustaqil O'zbekistonda kechayotgan ma'naviy mafkuraviy islohatlarni, umuman jamiyatni «pedagog ko'zi» bilan o'rganish dolzarb muammolaridan bo'lib hisoblanadi. Eng asosiysi ijtimoiy hayotda shunday holatlar uchraydiki unda bolalar, o'smirlar, tarbiyachilar bunday og'ir vaziyatda o'zlariga ruhan malham bo'ladigan sotsial pedagogning yordamiga muhtoj bo'ladilar.

Demokratik jamiyatda shaxs va muayyan ijtimoiy guruxning intellektual salohiyati o'rtasida doimiy aloqa mavjud bo'ladi. Har bir inson jamiyatda o'z qobiliyati va ehtiyojlariga yarasha o'rin egallaydi.

Xozirgi sharoitlarda davlatning kadrlar tayyorlash va ularga bo'lgan ehtiyojni ta'minlash kafili sifatidagi rol avvalgi tizimdan jiddiy farq qiladi. Demokratik jamiyat va bozor iqtisodiyoti sharoitlarida "davlat kadrlar tayyorlash va ularga bulgan ehtiyojni qondirishning kafilidir" degan qoida mutlaqo yangi mazmun kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining yangi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida ko'zlangan maqsadlar ham avvalombor shaxsning robotlashuviga chek qo'yilishi, o'zining mustaqil inson (subekt) tarzida namoyon bo'lishi uchun moddiy-ma'naviy negiz barpo etilishi, shaxsiy dunyoqarash (ham ilmiy, ham diniy), barqaror e'tiqod, mustahkam pozitsiya, qat'iy iroda, o'tkir va bukilmaz g'oyani yegallashga imkon yaratilishidan dalolat beradi. Shunday yekan, ana shunday umumbashariy ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy voqelik, hodisa, ijtimoiy tasavvur va ehtiyoj mamlakatimizda shaxsning markaziy figura sifatida tan olinishi va rivojlanishining harakatlantiruvchisi tarzida shakllantirishni taqozo etadi.

Respublikamizda mustaqillik sharofati bilan qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda qo'yilgan maqsad va vazifalarning to'la amalga oshishi mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy muhitning o'zgarishiga olib keladi, jamiyatda yangi shaxs – komil insonlar vujudga keladi.

Jamiyatning infrastrukturalarida, guruhshaxslararo munosabatlarda demokratiya prinsiplarining qaror topishi, fuqarolar o'rtasida tenghuquqlilik, subektlilik, hamkorlik, hamdardlik (empatiya) mezonlari turmush tarziga aylana borishi kishilik dunyosining jahonshumul ijtimoiy tarixiy g'alabasining yorqin ifodasidir. Xuddi shu bois, ta'lim-tarbiya jarayonida sotsiomadaniy xislatlarga ega, mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, kuchli irodali, ishchan, g'oyaviy e'tiqodli, ma'naviyati yuksak, pok vijdonli shaxsni kamol toptirish joiz. Bu o'rinda bilimni o'zlashtirish katta ahamiyatga ega, chunki bilimli insonlar jamiyatning barcha jabhalarida faol bo'lishi muqarrar, ular o'zlarining barqaror e'tiqodiga ega bo'lishadi, bu esa davlatimizning *barkamol shaxsni yetishtirishdek* maqsadiga mos kelishi ayni muddaodir.

Bu maqsadda qo'llanayotgan metodikalar muayyan darajada murakkab bo'lib, har doim ham to'g'ri natija beraveradi, deb bo'lmaydi. Pedagogik amaliyotda talabalar shaxsning alohida sifatlarini o'rganadilar, lekin olingan natijalarga asoslangan holda, har doim ham erisha olmaydilar. Chunki pedagogik tajriba uzluksizligini ta'minlash yalpi yondashishni taqozo etadi, har yoqlama tahlilgina uning yechimiga ijobiy ta'sir etadi.

Talabalarining shaxsiy-tavsifnomaviy fazilatlarini aniqlash, hech bo'lmaganda oddiy metodikasini egallash, uni tadbqiq etish, kasbiy pedagogik tayyorgarlikning muhim unsurlaridan biridir. Bo'lajak o'qituvchilar, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilari pedagogik amaliyotlari jarayonida, ko'pincha, yoshlarning aqliy qobiliyatlarini o'rganishga e'tibor qaratadilar, ammo maktab o'quvchilarida sotsiomadaniy xislatlarni shakllantirishga yetarli darajada e'tibor berishmaydi. Bunda «Davlat- jamiyat- shaxs» kategoriyalarini

to'laqonli anglash muhim ahamiyat kasb yetadi.

Pedagogikada ilgari yetarli darajada e'tibor berilmagan yo'nalish-tahsil oluvchilarning bilim o'zlashtirishini mukammallashtirish asosida ularning sotsiomadaniy xislatlarini shakllantirish, ya'ni «shaxs» va «davr» yoki «davr va shaxs» munosabatlarining takomillashuvi natijasida bugungi kunda salmoqli ahamiyatga ega bo'lib borishi bilan belgilanadi va u quyidagilarda o'z aksini topadi:

1. Mafkuraviy tizimning o'zgarishi, ijtimoiy yangilanish yoshlarning faollik darajasiga yangicha yondashish, qarash, munosabat, mezon, talab, mohiyat, mazmun, shakl taqozo yetishi.

2. Milliylik bilan diniylikning uyg'unlikka ega ekanligi, millatlararo munosabatlardagi bag'rikenglik ijtimoiy faollik va madaniylik fenomenologiyasi ko'lamini yanada kengaytirishni talab qilish.

3. Pedagogik tadqiqotlarda psixologik nazariya va amaliy-ilmiy apparatni qo'llanilishi, muhitga muvofiqlantirilish tendensiyasi kuchayishi.

Bu yo'nalish yangi O'zbekistonning har tomonlama rivojlanishida, turli-tuman etnik qatlamlarning ma'naviy-ma'rifiy hayotida paydo bo'lgan muammolarini muvaffaqiyatli hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir jamiyat infrastrukturalarida shaxsga qo'yiladigan talab o'z mezon va tamoyiliga ega bo'lgan. Yurtimizda shaklanib kelayotgan yosh avlodga yangicha qarash va munosabat va unga qo'yilgan mas'uliyat ham nihoyatda oshib bormoqda.

«Shaxs va davr» yoki «davr va shaxs» munosabati muammolari tahlilida uchta holat ko'zga tashlanadi:

Birinchi toifa shaxslar o'z davrining ruhi maqsad va vazifalarini anglay olmaydi, ya'ni zamondan orqada qoladi.

Ikkinchi toifa shunday shaxslar borki, ular davr bilan hamnafas, o'zi yashagan zamonning yalovbardori sifatida namoyon bo'ladi.

Uchinchi toifa insonlar yetakchilar sanalib, ular voqelikdan o'zib ketadi, ayni paytda o'z davrining ruhini chuqur his yetadi va anglaydi. Bunda y shaxs hayotiy qarashlari, g'oyasi va faoliyat yo'nalishida kelajakni ko'ra oladi.

Ikkinchi va uchinchi xususiyaga yega bo'lgan, ma'naviyati yuksak shaxslarni tarbiyalash bugungi kunda salmoqli ahamiyatga yega. Shaxsning sotsiomadaniy xislatlari yuqori bo'lsa, tabiiy ravishda bu uning amaliy faoliyatida ham o'z ifodasini topadi, uning g'oyalari jamiyatga singadi.

Har bir odam faqat ta'lim, ijtimoiy tarbiya va ma'naviy kamolot, kasb-hunar o'rganish tizimi vositasidagina shaxs bo'lib shakllanadi. Natijada shaxsning ijtimoiy kamol topishi – uning jamiyat uchun foydali funksiyalarini bajarishi, o'z vazifa va burchlarini puxta va ijodiy anglab, boshqalar bilan teng, mustaqil munosabatlarga kirishuvi yuz beradi.

Tahsil oluvchilar bilim o'zlashtirish jarayonida yoshlarda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulq-atvor malaka va odatlari hosil qilinadi. Bunga erishish kezida yoshlarning ongiga (ta'lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta'sir etib boriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M.. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga

- ko'taramiz. "O'zbekiston", 2016. B.324,486, 487.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.
3. G'ofurov G'. Milliy an'analar//Xalq so'zi, 1993 yil. 11 fevral, B. 2
4. Farmonova Muzayyamxon Qadriyatlar–ma'naviy kamolot asosi/ Ilmiy-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: "Tasvir nashriyot uyi", 2019, 36 b.
5. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur. T; "O'qituvchi", 1999. B.198.
6. Shavkat Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. "O'zbekiston", 2016. B.324,486, 487.
7. Eshquvvatov T.E.The Pedagogical Activity Of The Students In The Preparation Of The Prevention Of Disputable Situations. Journal of Positive School Psychology <http://journalppw.com> 2022, Vol. 6, No. 10, 2426-2431

